

**BOLALAR ADABIYOTIDA ANVAR OBIDJON IJODIDA HAJVIY TALQIN VA
"DAHSHATLI MESHPOLVON" FENOMENI****Narziqulova Iroda**O'zMPU Filologiya Fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
irodanarziqulova55@gmail.com**Nargiza To'xtayeva**

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20195385>

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanish tendensiyalarini, badiiy-estetik o'ziga xosliklarini va zamonaviy adabiy jarayondagi o'rnini tadqiq etishga bag'ishlanadi. Asosiy e'tibor mustaqillik davri bolalar adabiyotidagi hajviy-yumoristik talqin, janr xilma-xilligi, bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat, hajviy obraz yaratish mahorati hamda zamonaviy bolalar ruhiyatiga murojaatga qaratiladi. Maqolada zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining yetakchi namoyandalaridan biri Anvar Obidjon ijodi misolida hajviy talqin va "Dahshatli Meshpolvon" fenomeni alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy bolalar adabiyoti, hajviy talqin, yumoristik talqin, hajviy obraz, badiiy jarayon, psixologik realizm, janr xilma-xilligi, bolalar she'riyati, milliy an'analar, Anvar Obidjon, "Dahshatli Meshpolvon", Gulmat, tarbiyaviy ahamiyat.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению тенденций развития современной узбекской детской литературы, художественно-эстетической специфики и места в современном литературном процессе. Основное внимание уделяется юмористико-сатирической интерпретации, жанровому разнообразию, глубокому обращению к детской психологии, мастерству создания сатирических образов, а также обращению к современной детской психике. В статье отдельно анализируются сатирическая интерпретация и феномен «Страшный Мешполвон» на примере творчества одного из ведущих представителей современной узбекской детской литературы Анвара Обиджона.

Ключевые слова: современная детская литература, сатирическая интерпретация, юмористическая интерпретация, сатирический образ, художественный процесс, психологический реализм, жанровое разнообразие, детская поэзия, национальные традиции, Анвар Обиджон, «Страшный Мешполвон», Гулмат, воспитательное значение.

Abstract: This article explores the development trends of modern Uzbek children's literature, its artistic and aesthetic specificity, and place in the modern literary process. The main focus is on satirical-humorous interpretation, genre diversity, deep addressing of child psychology, mastery of creating satirical images, as well as addressing the modern child's mentality. The article separately analyzes satirical interpretation and the "Terrible Meshpolvon" phenomenon on the example of the work of Anvar Obidjon, one of the leading representatives of modern Uzbek children's literature.

Keywords: Modern children's literature, satirical interpretation, humorous interpretation, satirical image, artistic process, psychological realism, genre diversity, children's poetry, national traditions, Anvar Obidjon, "Terrible Meshpolvon," Gulmat, pedagogical significance.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida bolalar adabiyoti alohida o'rin tutadi. Adabiyotning eng mehrli va mas'uliyatli turlaridan biri hisoblangan bolalar adabiyoti bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, ularning estetik didini shakllantirishda, milliy ong va vijdonini uyg'otishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bolalar adabiyotining tarixiga nazar solsak, o'zbek milliy bolalar adabiyoti XX asr boshlarida shakllana boshlagan. G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Tog'ay Murod, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Zulfiya kabi adiblarimizning bolalar uchun yozgan asarlari zamonaviy bolalar adabiyotining mustahkam poydevorini tashkil etdi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek bolalar adabiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy qadriyatlarga, ona tiliga, Vatanni sevis, bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat qilishga bo'lgan e'tibor kuchayishi natijasida zamonaviy bolalar adabiyoti jiddiy rivojlanishga erishdi. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida hajviy-yumoristik talqin kuchaydi, yozuvchilar bolalarning ichki dunyosini, ularning hazil-mutoyibalarini, bolalik olamining o'ziga xos xususiyatlarini ochishga intildilar.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy adabiyotshunoslikda bolalar adabiyoti umumiy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan bugungi adabiy jarayondagi hajviy talqin, hajviy obraz yaratish mahorati, xususan, Anvar Obidjon kabi tajribali adiblar ijodining o'ziga xosligi, ularning badiiy-estetik xususiyatlari, pedagogik ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmagan. Ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mustaqillik davri bolalar adabiyotining rivojlanishi Mustaqillikning birinchi va ikkinchi o'n yilligi orasida bolalar adabiyotimiz tez rivojlana boshladi. So'ngi yillar bolalar adabiyoti shakl va mazmun tomondan yangilandi, janr imkoniyatlari kengaydi. San'atkorlar jahon bolalar adabiyotining barhayot tajribalaridan unumli foydalana boshladilar. Bu yillar an'analarga ko'ra ko'plab she'riy va nasriy asarlar dunyoga keldi. Bolalar adabiyotining rivojlanishi va yangilanishi mavzu ko'lamining

kengayishida yaqqol ko'rinadi. Tarixiy mavzularda bolalar uchun yozilgan asarlar soni ortdi. Buyuk ajdodlarimizning hayoti, milliy tarixning muhim sahifalari bolalar tilida badiiy talqin etila boshladi. Zamonaviy mavzularda ham ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlarda jamiyatdagi turli muammolarni — ekologiya, axloqiy qadriyatlarning parchalanishi, oilaviy munosabatlarning o'zgarishi kabi muammolarni bolalar tushunadigan tilga solishga harakat qilindi. Bolalar adabiyotida janr xilma-xilligi kuchaydi. Ertak, qissa, hikoya, roman, she'riyat, drama janrlarida yangi asarlar yaratildi. Ayniqsa, bolalar hajviyoti sohasida katta o'sish kuzatildi. Yangi hajviy uslublar, yangi ifoda vositalari qo'llanila boshladi. Bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat qiluvchi asarlar soni ortdi.

Bugungi o'zbek bolalar adabiyotining o'ziga xos tamoyillari va hajviy yo'nalishlari bir necha jihatlar bilan namoyon bo'ladi:

Hajviy-yumoristik talqinning rivojlanishi. Zamonaviy asarlarda bolalarning ichki dunyosi, ularning hazil-mutoyibalarini, bolalik olamining o'ziga xos xususiyatlarini hajviy tarzda ifodalash keng qo'llaniladi. Bu asarlar bolalarni o'zini-o'zi tanishga, atrofdagi dunyoni anglashga undaydi.

Hajviy obraz yaratish. Zamonaviy asarlarda hajviy tip, hajviy qahramon yaratish mahorati rivojlanmoqda. Bu obrazlar orqali jamiyatdagi salbiy xislatlar, bema'niliklar tanqid ostiga olinadi.

Tarbiyaviy va estetik ahamiyat. Bolalar adabiyoti nafaqat o'yin-kulgi vositasi, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya, estetik did shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Hajviy asarlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik, mehribonlik g'oyalari keng yoritiladi.

Milliy an'analar va zamonaviylikning uyg'unlashuvi. Asarlarda milliy urf-odatlar, bayramlar, o'yinlar keng yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, global muammolar, bolalarning zamonaviy hayoti ham aks etadi.

Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining yetakchi namoyandalaridan biri Anvar Obidjon (1947-2020) o'zining ijodiy faoliyati davomida bolalar adabiyotining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Adib 1947-yil 25-yanvarda Farg'ona viloyati Oltiariq tumanining Poloson qishlog'ida tug'ilgan, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan va 1998-yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoniga sazovor bo'lgan. Anvar Obidjon bolalar adabiyotiga "Ona Yer" (1975), "Bahromning hikoyalari", "Olovjon va uning do'stlari" (1983), "Bezgakshamol" (1985), "Oltin yurakli avtobola" (1986), "Juda qiziq voqea" (1987), "Dahshatli Meshpolvon" (1990) kabi she'riy va nasriy asarlar bilan kirib kelgan. Uning "Qo'ng'iroqli yolg'onchi", "Pahlavonning o'g'irlanishi", "Topsang hay-hay", "To'tiqul", "Qorinbotir", "Navro'z va Boychechak", "Alamazon va uning piyodalari", "Meshpolvon" kabi pyesalari mamlakatimiz teatrlarida keng sahnalashtirilgan va repertuardan mustahkam o'rin

olgan. "O'zbekfilm" kinostudiyasi tomonidan "Tilsimoyg'aroyib qizaloq" va "Dahshatli Meshpolvon" komediyalari kino tasmasiga tushirilgan. Anvar Obidjon ijodi zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Uning asarlari hajviy-yumoristik talqin, hajviy obraz yaratish mahorati, bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat, milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi jihatlari bilan ajralib turadi.

Anvar Obidjon o'zining ijodida hajviy talqinni keng qo'llagan. Adibning hajviy she'rlari, hikoyalari va pyesalari bolalar adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Uning hajviy talqini quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

Hajviy tip yaratish mahorati. Adabiyotshunos olim A.Rasulov "Ijodiy o'zlik sari" kitobida XIX asr oxiri XX asr boshlarida yaratilgan hajviy obrazlar haqida gapira turib, "XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida yana ikkita yorqin hajviy tip yaratildi. Biri — Matmusa (Erkin Vohidov), ikkinchisi — Gulmat (Anvar Obidjon)", deb yozadi. Qahramon shoirimiz Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkumini o'qimagan, Matmusaning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan hangomalaridan qotib-qotib kulmagan o'zbek bo'lmasa kerak. Shu ma'noda donishqishloqlik Matmusa o'zbek kitobxoniga qanchalik suyumli bo'lsa, oltiariqliklik Gulmat ham shu qadar ardoqlidir. Hajviy qahramon yaratish, uni tip darajasiga ko'tarish masalasi ijodkordan katta mahorat talab etishini hammamiz yaxshi bilamiz. Anvar Obidjon usta Gulmatni adabiyotshunoslar "yorqin hajviy tip" deya baholashlarining sabablarini izlashga harakat qilib ko'ramiz. "Usta Gulmat" turkumidagi she'rlar. Anvar Obidjon "Dastlabki she'rlarimni o'sha otin oyilardan eshitgan Mashrab g'azallari radiflariga taqlidan bitganman", deya xotirlaydi ijodining dastlabki pallalari haqida. Demakki, usta Gulmat turkumidagi she'rlar yaratilishiga turtki bo'lgan omillarni mana shu murg'ak tasavvurlardan izlash kerakka o'xshaydi. "Bezgakshamol" to'plami orqali turkum g'azallarini xalqimiz hukmiga havola etishdan avval "Ketmagil" deb nomlangan ilk to'plamida dastlabki hajviy g'azallarini e'lon qildi. To'plamga "Anvar" taxallusida yozilgan uch g'azal kiritilgan. Har uchulasi hazaji musammani solim vaznida yozilgan "Kerak bo'lsin", "Nasib bo'lsa", "Yalintirgay" radifli g'azallar o'ta kamtarinlik bilan "g'azal shaklidagi she'rlar" deb nomlangan bo'lsa ham, shakl va badiiyat jihatidan mukammal g'azallar ekanligi ko'rinib turibdi. Nishona asari xalqimiz tomonidan xush qabul qilinganidan ruhlangan shoir usta Gulmat turkumida she'rlarni "Bezgakshamol", "Akanq qarag'ay Gulmat", "Alamazon va Gulmat hangomasi", "Alamazon va Gulmat" to'plamlari orqali ketma-ket e'lon qila boshladi. Bu asarlar hozirgacha adabiyotimiz jonkuyarlari tomonidan munosib baholanib kelinmoqda. Badiiy mistifikatsiya va xronologik tasvirlash uslubi. Anvar Obidjon "Bezgakshamol" to'plamida mustaqil g'azallar salmoqli o'rin tutadi. Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Zavqiy g'azallariga nazira tarzida bitilgan g'azallar ham

talaygina. Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda mistifikatsiyaga "asarda muayyan maqsaddan kelib chiqib, hodisaga sirli tus berish, yo'q narsani bor deb o'quvchini ishontirish" yoki "pinhoniylilik, sehrGARlikka yo'g'rilgan voqealar turtki bo'lib, dastlab topib olingan, so'ng'ra yo'qotilgan qo'lyozma hamda bu haqdagi hikoyani ravnaq toptiruvchi o'rta asrga xos xronologik tasvirlash uslubi" deb ta'rif beriladi. Bu uslub shoir Gulmat qalamiga mansub devon, olimlikka ashaddiy ishqiboz Burundor Tasmoliyning hali tasdiqlanmagan ilmiy ishi, mulla Akobirning kundaliklari, hattoki Gulmatiy she'rlarining tiklangan yillarining berilishi, izoh ma'nosidagi tagmatnlar voqealarga sirli tus berishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

"Dahshatli Meshpolvon" Anvar Obidjon ijodining eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asar 1990-yilda nashr etilgan va keyinchalik "O'zbekfilm" kinostudiyasi tomonidan komediya sifatida kino tasmasiga tushirilgan. Asar bolalar adabiyotida hajviy-yumoristik talqinning eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.


Janr va kompozitsion tuzilma. "Dahshatli Meshpolvon" bolalar qissasi janrida yozilgan bo'lib, sarguzasht, fantastika va hajviy elementlar uyg'unlashgan. Asar kompozitsiyasi an'anaviy sarguzasht qissasi qoidalariga asoslangan. Ekspozitsiyada qahramonlar, ularning hayoti va muhiti tanishtiriladi. Zavjarada voqealar rivojlanadi, ziddiyatlar kuchayadi. Kulminatsiyada asarning eng yuqori nuqtasi tasvirlanadi. Razvyazkada esa voqealar yechimi, qahramonlarning o'zgarishi ifodalanadi.

Qahramonlar tahlili. Asar asosiy qahramonlari — Oshiqbola va Meshpolvondir. Oshiqbola — jasur, aqlli, mehnatkash bola obrazi sifatida tasvirlangan. Uning do'sti Meshpolvon esa kuchli, biroq biroz sodda, o'zining "dahshatli" nomiga yarasha obro'sini saqlashga intiluvchi qahramondir.

Meshpolvon obrazi hajviy talqining eng yorqin namunasi. U o'zining kuchidan, kattaligidan faxrlanadi, biroq aslida biroz qo'rqqoq va sodda. Uning "dahshatli" nomi haqiqiy dahshatdan ko'ra, bolalik hayoloti va fantaziyasining mahsuli sifatida tasvirlangan. Bu obraz orqali yozuvchi kattalarning o'zini o'ylashini, ularning bolalar ko'zida qanday ko'rinishini hajviy tarzda ifodalaydi. Asarda yana bir qator yordamchi qahramonlar — gadoy, o'yinchi kampir, mazanglar va boshqalar tasvirlangan. Ular orqali jamiyatdagi turli qatlamlar, turli xil insonlar, ularning xatti-harakatlari hajviy tarzda tasvirlanadi.

Hajviy talqin va yumoristik elementlar. Asarda hajviy talqin alohida o'rin tutadi. Meshpolvonning o'zining "dahshatli" ekanligini tasdiqlashga urinishlari, uning sodda xatti-harakatlari, Oshiqbola bilan suhbatlari orqali hajviy vaziyatlar yaratiladi. Asardagi quyidagi satrlar hajviy talqinning yorqin namunasi:

"Yurma menga egov bo'lib,



Olifta-yu lalov bo'lib,
Yoz paytiyam tumov bo'lib,
Burning qilib paraq-puruq.

Bosib kiborliging yuki,
Yo'l boshlama lo'kki-lo'kki,
Asli mendan farqing shuki,
Tasmang faqat yaraq-yuruq."

Bu satrlar Meshpolvonning o'zini o'ylashi, uning boshqalarni kamsitishga urinishi hajviy tarzda ifodalangan. Asarda taqlid so'zlar ("paraq-puruq", "lo'kki-lo'kki", "yaraq-yuruq") keng qo'llanilgan bo'lib, ular asarning yumoristik kayfiyatini oshiradi.

G'oyaviy mazmun va tarbiyaviy ahamiyat. "Dahshatli Meshpolvon" asarining asosiy g'oyaviy mazmuni do'stlik, jasorat, aqllilik va mehnatsevarlik qadriyatlaridan iborat. Asar bolalarni yaxshilikka, insonparvarlikka, mehribonlikka undaydi. Meshpolvon obrazi orqali kattalarning o'zini o'ylashi, ularning bolalar ko'zidagi obro'si hajviy tarzda tanqid ostiga olinadi. Asar bolalarni o'z kuchiga ishonch, do'stlariga sadoqat, yomonlikka qarshi kurashishga chorlaydi. Oshiqbola obrazi orqali aqllilik, jasorat, mehnatsevarlik fazilatlari ulug'lanadi.

Til va uslub. Anvar Obidjon "Dahshatli Meshpolvon" asarida sodda, tushunarli, ammo badiiy jihatdan boy til qo'llagan. Bolalar tiliga mos ifodalar, tasvirli so'zlar, taqlid so'zlar keng qo'llaniladi. Dialoglar orqali qahramonlar xarakteri ochib beriladi, ularning o'ziga xos xususiyatlari namoyon etiladi. Asarda hajviy til, yumoristik ifodalar, bolalik hayoloti va fantaziyasi keng qo'llanilgan. Yozuvchi o'ziga xos tasvir uslubiga ega bo'lib, mayda tafsilotlarga e'tibor berib, ular orqali katta ma'noni ifodalashga erishadi.

"Dahshatli Meshpolvon" asari zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida o'ziga xos fenomenga aylangan. Bu fenomen quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

Kino ekranlashtirilishi. Asar "O'zbekfilm" kinostudiyasi tomonidan komediya sifatida kino tasmasiga tushirilgan. Bu asarning ommaviyligini oshirgan, uning ta'sir doirasini kengaytirgan. Film orqali asar ko'proq bolalarga, o'smirlarga yetib borgan.

Teatr sahnalashtirilishi. Asar mamlakatimiz teatrlarida keng sahnalashtirilgan. "Meshpolvon" pyesasi bolalar teatrlarining doimiy repertuariga kirgan va tomoshabinlarning qiziqishini uyg'otgan.

Bolalar hayolotining ifodasi. Asar bolalar hayolotining, ularning fantaziyasining eng yorqin ifodalardan biri hisoblanadi. Meshpolvon obrazi bolalarning kattalarga, kuchli qahramonlarga bo'lgan qiziqishini ifodalaydi. Biroq bu obraz hajviy tarzda



talqin etilgan bo'lib, bolalarga kattalarning ham zaif, sodda tomonlari borligini ko'rsatadi.

Hajviy talqinning yangi bosqichi. "Dahshatli Meshpolvon" asari zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida hajviy talqinning yangi bosqichini boshlab bergan. Bu asardan keyin ko'plab yozuvchilar hajviy-yumoristik asarlar yaratishga kirishgan. Asar keyingi avlod yozuvchilari uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa

Bugungi o'zbek bolalar adabiyoti mustaqillikdan oldingi davrga nisbatan mavzuiy jihatdan boyib, janriy jihatdan xilma-xillashdi, bolalar psixologiyasiga chuqurroq murojaat qila boshladi. Zamonaviy bolalar adabiyoti nafaqat badiiy qimmatga ega, balki jamiyatda milliy ong, ma'naviy-estetik tarbiya, ijtimoiy adolat kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Anvar Obidjon ijodi zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Uning asarlari hajviy-yumoristik talqin, hajviy obraz yaratish mahorati, bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat, milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi jihatlari bilan ajralib turadi. "Dahshatli Meshpolvon" asari adibning eng yorqin namunalaridan biri bo'lib, unda hajviy talqinning barcha imkoniyatlari to'la namoyish etilgan.

Ayniqsa, quyidagi xususiyatlar alohida ta'kidlanishi lozim:

1. Hajviy-yumoristik talqinning rivojlanishi va yangi uslublar yaratilishi;
2. Hajviy tip yaratish mahorati — "Usta Gulmat" obrazi;
3. Badiiy mistifikatsiya va xronologik tasvirlash uslubi;
4. "Dahshatli Meshpolvon" fenomeni — kino va teatr sahnalashtirilishi;
5. Bolalar hayolotining va fantaziyasining ifodasi;
6. Til ma'naviyati va badiiy ifoda vositalarining boyligi;
7. Pedagogik ahamiyati va tarbiyaviy ta'siri.

Kelajakda bolalar adabiyotida zamonaviy texnologiyalar, global muammolar, ekologiya, sun'iy intellekt kabi yangi mavzular ham yoritilishi, asar va ekran talqini uyg'unlashuvi kuchaytirilishi lozim. Bolalar adabiyoti doim bolaga murojaat qiladi, uning qalb sirlarini ochishga intiladi, bolalarning o'zaro munosabatlar mohiyatini anglashga harakat qiladi, bu bola katta yoki kichik bo'lishining ahamiyati yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. — T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
2. Isokova M. Bolalar adabiyoti nazariyasi. — T., 2021.
3. Tashmuxammedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi.
4. To'laxo'jayova M., Qozoqboev T. Bolalar adabiyoti nazariyasi. — T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2014.



5. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. — T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
6. Normatov U. Hayot va hajviyot. Nafosat gurunglari. Toshkent: "Muharrir", 2010.
7. Mamatalimov Z.M. Anvar Obidjonning hajviy she'rlari xususida. //Ziyouz.uz, 2024.
8. Rasulov A. Ijodiy o'zlik sari. — T.: Adabiyot va san'at, 2018.
9. Ziyouz.uz — Anvar Obidjon tarjimai holi va ijodi.
10. Kitobxon.com — Anvar Obidjon asarlari, kitoblari.